



« 9 » avgust 2023-y.

02-01/3-1188-son

**Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari  
agentligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi,  
Toshkent shahri hamda viloyatlar  
maktabgacha va maktab ta’limi  
boshqarmalariga**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **PF-79-son Farmoni 3-bandiga asosan:**

2024-yil 1-yanvardan boshlab umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining pedagogik kasblariga birinchi marta ishga qabul qilinayotgan talabgorlarni kasbiy sertifikatlash tizimi joriy etiladi;

2023/2024-o‘quv yilidan boshlab pedagogik kasblarga birinchi marta ishga qabul qilinadigan oliy ma’lumotli talabgorlar stajor-o‘qituvchi sifatida faoliyat yuritadi va ular ishga qabul qilingan vaqtdan boshlab bir yil muddat davomida kasbiy sertifikatga ega bo‘lishi talab etiladi, **stajor-o‘qituvchilarga ular kasbiy sertifikat** olguniga qadar oliy ma’lumotli (toifasiz) o‘qituvchining bazaviy tarif stavkasi qo‘llaniladi.

O‘zDSt 3513:2021 Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatori (XALIKK-2020)ning 3696-pozitsiyasida “O‘qituvchi-stajor” xizmatchi lavozimi talablari belgilangan.

“O‘qituvchi-stajor” lavozimiga ishga qabul qilishda O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 110-moddasiga muvofiq xodim va ish beruvchi o‘rtasida nomuayyan muddatga mo‘ljallangan mehnat shartnomasi tuziladi. Mehnat shartnomasini tuzishda Kodeksning 104-moddasida ko‘zda tutilgan mehnat shartnomasiga kiritilishi shart bo‘lgan shartlar ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-sonli qarorining 9-bandiga muvofiq 2022/2023-o‘quv yilidan boshlab, davlat ta’lim muassasalarining xorijiy tillar o‘qituvchilari lavozimlariga ishga yangi qabul qilinayotgan talabgor **kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo‘lishi lozimligi** belgilangan.

Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-oktabrdagi 07/1-1287-son topshirig‘i asosida umumta’lim maktablarida xorijiy tillarni o‘qitish jarayonini davomiyligini ta’minlash maqsadida 2022-2023-o‘quv yili uchun istisno tariqasida talab etilmagan va mazkur talab **2023-2024-o‘quv yilidan boshlab kuchga kirishi** belgilangan.

2023-2024-o‘quv yilidan boshlab kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo‘lgan xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha pedagogik kasblarga **birinchi marta ishga qabul qilinadigan** oliy ma’lumotli talabgorlar ham umumta’lim muassasasiga stajor-o‘qituvchi sifatida ishga qabul qilinadi va ulardan ishga qabul qilingan vaqtdan boshlab bir yil muddat davomida kasbiy sertifikatga ega bo‘lishi talab etiladi.

Shu munosabat bilan, mazkur ko‘rsatib o‘tilgan tavsiya asosida barcha umumta’lim muassasalari rahbarlariga tegishli tushuntirish ishlarini olib borishingiz hamda muammoli holatlar yuzaga kelganda bartaraf etish choralarini ko‘rishingiz so‘raladi.

**Vazirning birinchi  
o‘rinbosari**



**U.Sharifxodjayev**